



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراسi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**  
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH  
KORXONALARIDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA  
BOSQICHLARI**

**Abduraxmonova Munisa**

*Qarshi davlat texnika universiteti  
Raqamli texnologiyalar va su'niy  
intellekt fakulteti “Optik aloqa tizimlari  
va tarmoqlari” kafedrasida assistenti.  
E-mail: munis11142020@gmail.com*

**Alimov Ulug'bek Baxodirovich**

*Qarshi davlat texnika universiteti  
Raqamli texnologiyalar va su'niy  
intellekt fakulteti “Optik aloqa tizimlari  
va tarmoqlari” kafedrasida katta o'qituvchisi  
ulugbekalimov6673933@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning xizmat ko'rsatish sohasiga ta'siri, zamonaviy menejment yondashuvlari va innovatsion yechimlarning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish, biznes rivoji, tamoyillar, bosqichlar, innovatsiya, raqamli transformatsiya.

**ПРИНЦИПЫ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ БИЗНЕСА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ  
УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ**

**Абдурахмонова Муниса**

*Ассистент кафедры «Оптические системы связи и сети»  
Факультета цифровых технологий и искусственного интеллекта  
E-mail: munis11142020@gmail.com*

**Алимов Улугбек Баходирович**

*Ассистент кафедры «Оптические системы связи и сети»  
Факультета цифровых технологий и искусственного интеллекта  
E-mail: ulugbekalimov6673933@gmail.com*

**Аннотация:** В данной статье анализируются принципы и этапы развития бизнеса в сфере услуг в условиях цифровой экономики. Подчеркивается влияние цифровых технологий на сектор услуг, важность современных подходов к управлению и инновационных решений.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, услуги, развитие бизнеса, принципы, этапы, инновации, цифровая трансформация.

**PRINCIPLES AND STAGES OF BUSINESS DEVELOPMENT IN SERVICE  
ENTERPRISES UNDER THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY**

**Munisa Abdurakhmonova**

*Assistant of the Department of Optical Communication Systems and Networks  
Faculty of Digital Technologies and Artificial Intelligence  
E-mail: munis11142020@gmail.com*





**Ulugbek Bakhodirovich Alimov**

*Assistant of the Department of Optical Communication Systems and Networks  
Faculty of Digital Technologies and Artificial Intelligence  
E-mail: ulugbekalimov6673933@gmail.com*

**Abstract:** *This article analyzes the principles and stages of business development in service enterprises under the conditions of a digital economy. It highlights the impact of digital technologies on the service sector, the importance of modern management approaches, and the role of innovative solutions.*

**Keywords:** *digital economy, service sector, business development, principles, stages, innovation, digital transformation.*

### **Kirish.**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki raqamlashtirish nafaqat xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi, balki mijozlar bilan interaktiv va shaxsiylashtirilgan munosabatlarni yo'lga qo'yishga zamin yaratadi. Bugungi kunda mijozlar ehtiyojlari tez o'zgarayotgan bir paytda, raqamli texnologiyalar yordamida real vaqt rejimida xizmat ko'rsatish, individual yechimlar taklif qilish va xizmat sifati monitoringini yuritish imkoniyati xizmat ko'rsatish sektorining raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish sohasida biznesni rivojlantirish orqali bandlik darajasini oshirish, kichik biznes va startaplar uchun yangi imkoniyatlar yaratish hamda hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish mumkin. Ayniqsa, sun'iy intellekt, IoT, Big Data kabi raqamli texnologiyalar xizmat turlarining diversifikatsiyasiga, resurslardan samarali foydalanishga va ekologik barqarorlikka erishishga xizmat qiladi. Shu bois xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashuvi va transformatsiyasi O'zbekistonning barqaror va innovatsion iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi dunyo miqyosida xizmat ko'rsatish korxonalarining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, mintaqalarda xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga moslashishi ularning raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va yangi bozorlarni o'zlashtirish uchun muhimdir.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillarini tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda raqamli texnologiyalar korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashning muhim omiliga aylanmoqda. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida biznesni rivojlantirish masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Raqamli iqtisodiyot va tarmoq jamiyati nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan M. Kastels iqtisodiyotning raqamlashtirilishi natijasida biznes subyektlari faoliyatida axborot texnologiyalarining ahamiyati keskin ortganligini ta'kidlaydi [1]. Uning fikricha, raqamli tarmoqlarning rivojlanishi korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi hamda yangi biznes modellarining shakllanishiga xizmat qiladi. E. Brinyolfsson va A. Makafi raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni jadallashtirish va korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab berganlar [2]. Ularning tadqiqotlari raqamli transformatsiya biznes rivojlanishining muhim bosqichi ekanligini ko'rsatadi. Platforma iqtisodiyoti nazariyasini rivojlantirgan G. Parker, M. Van Alstayn va S. Choudari raqamli platformalar xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun yangi imkoniyatlar yaratishi, mijozlar bazasini kengaytirishi hamda biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishini ta'kidlaydilar [3]. Ularning fikricha, zamonaviy biznesning muvaffaqiyati ko'p jihatdan raqamli platformalardan samarali foydalanishga bog'liq. Marketing sohasidagi taniqli olimlar F. Kotler va K. Keller xizmat





ko'rsatish korxonalarining muvaffaqiyati mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv tizimi va innovatsion marketing strategiyalarini qo'llash bilan bog'liqligini qayd etadilar [4]. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mijozlar bilan interaktiv aloqalarni rivojlantirish biznesning barqaror o'sishini ta'minlaydi. Innovatsion rivojlanish nazariyasining asoschisi Y. Shumpeter iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili innovatsiyalar ekanligini ta'kidlaydi [5]. Bugungi kunda ushbu nazariya raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini modernizatsiya qilish jarayonlarida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlarida raqamli transformatsiya korxonalarining samaradorligini oshirish, yangi biznes modellarini shakllantirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida baholanadi [6]. OECD tadqiqotlarida biznes rivojlanishining raqamli tayyorgarlik, texnologiyalarni joriy etish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish kabi bosqichlari ajratib ko'rsatilgan [7]. Jahon banki ekspertlari raqamli texnologiyalar xizmat ko'rsatish sohasida xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish hamda yangi bozor segmentlariga chiqish imkoniyatlarini yaratishini ta'kidlaydilar [8]. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish biznes qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirmoqda. A. Agrawal, J. Gans va A. Goldfarb sun'iy intellektning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tadqiq qilib, ushbu texnologiyalar biznes jarayonlarini optimallashtirish va risklarni kamaytirishda muhim vosita ekanligini asoslab berganlar [9]. Shuningdek, Jahon iqtisodiy forumi ekspertlari kelajakda xizmat ko'rsatish korxonalarining muvaffaqiyati raqamli ko'nikmalarga ega inson kapitali, innovatsion boshqaruv va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog'liq bo'lishini qayd etadilar [10]. Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari innovatsionlik, mijozlarga yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik va raqamli transformatsiya bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, biznes rivojlanishining bosqichlarini ilmiy asosda takomillashtirish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarur hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini OECD, Jahon banki, Jahon iqtisodiy forumi hisobotlari hamda xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatiga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Tahlil jarayonida raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish, mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv va biznes jarayonlarini raqamlashtirishning xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatiga ta'siri baholandi. Olingan natijalar asosida biznesni rivojlantirishning ustuvor tamoyillari va bosqichlari aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **Tahlil va natijalar.**

Dunyo bo'ylab raqamli iqtisodiyotning ulushi tobora oshib bormoqda. Sun'iy intellekt, Big Data, IoT, blokcheyn kabi texnologiyalar biznesni boshqarishda muhim vositalarga aylanmoqda. Xalqaro savdo, turizm, logistika va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalar orqali xizmatlarni boshqarish imkoniyati yanada oshmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillarini o'rganishning asosiy maqsadi – bu zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish korxonalarining samaradorligini oshirish, ularda innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda raqamlashtirish orqali xizmat sifati, xaridorlar ehtiyojiga moslik va tezkorlikni ta'minlovchi strategiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsad xizmat ko'rsatish sektorida raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish, global tendensiyalarni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlarini o'rganishni talab etadi. Ushbu tadqiqotning vazifalari qatoriga, birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining holatini baholash, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi darajasini aniqlash va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rganish kiradi. Shuningdek,





korxonalarda qo‘llanilayotgan raqamli platformalar, CRM/ERP tizimlari, sun‘iy intellekt asosidagi xizmatlarni tahlil qilish hamda ularni joriy etishning afzallik va cheklovlarini ko‘rsatib berish vazifalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi navbatda, tadqiqotning vazifalari sirasiga raqamli transformatsiyaning xizmat ko‘rsatish tizimida biznes jarayonlarni soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirish va foydalanuvchi tajribasini (customer experience) yaxshilashga qaratilgan tamoyillarini aniqlash, ularni konseptual modelga asoslangan holda tizimlashtirish hamda sektorning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish kiradi. Shu orqali xizmatlar eksportini kengaytirish, mahalliy brendlar raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shish ko‘zda tutiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari (1-jadval)

1-jadval

**Xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari<sup>40</sup>**

<b>№</b>	<b>Tamoyil nomi</b>	<b>Mazmuni</b>
1	<b>Raqamlashtirish tamoyili</b>	Xizmat ko‘rsatishning barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish – buxgalteriya, mijozlar bilan aloqa, xizmat yetkazib berish va marketing jarayonlarini avtomatlashtirish.
2	<b>Mijozga yo‘naltirilganlik</b>	Har bir xizmat jarayoni mijoz ehtiyojlarini markazga qo‘ygan holda, personalizatsiya va tezkor javob berishga asoslangan bo‘lishi kerak.
3	<b>Innovatsion rivojlanish</b>	Sun‘iy intellekt, bulutli hisoblash, IoT va Big Data texnologiyalarini joriy etish orqali xizmat sifati va samaradorligini oshirish.
4	<b>Barqarorlik va yashil yondashuv</b>	Energiya tejovchi uskunarlar, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsiz xizmatlar asosida faoliyat yuritish.
5	<b>Moslashuvchanlik va tezkor transformatsiya</b>	Bozordagi o‘zgarishlarga moslashuvchan rejalashtirish va xizmat turlarini mos ravishda yangilash.
6	<b>Ma‘lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish</b>	Raqamli tahlillar va mijoz xatti-harakatlari asosida biznes strategiyalarni shakllantirish.
7	<b>Ochiqlik va shaffoflik</b>	Raqamli platformalar orqali xizmat narxлари, sifati va mijoz fikrlariga ochiq bo‘lish, ishonch muhitini yaratish.

Bu tamoyillar xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqamli muhitda raqobatbardosh bo‘lishi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

1-jadvaldagi har bir tamoyil raqamli transformatsiya jarayonida o‘ziga xos funksional rol o‘ynaydi va umumiy xizmat ko‘rsatish tizimining samaradorligiga xizmat qiladi. Raqamlashtirish tamoyili xizmat ko‘rsatish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni to‘liq integratsiyalashni nazarda tutadi. Bunga buxgalteriya tizimlarining elektronlashtirilishi, CRM orqali mijozlar bilan doimiy aloqada bo‘lish, onlayn buyurtmalar, raqamli marketing kampaniyalari kiradi. Bu avtomatlashtirish nafaqat tezlik, balki aniqlik, xarajatlar optimallashtiruvini ham ta‘minlaydi.

Mijozga yo‘naltirilganlik tamoyili xizmat markazida mijoz ehtiyojlari turadi. Har bir xizmat, platforma yoki ilova individual mijoz profili, xarid tarixi yoki talablari asosida moslashtirilishi kerak. Bu tamoyil xizmatni personalizatsiyalash, mijozlar tajribasini boyitish va ularning sadoqatini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish tamoyili sun‘iy intellekt (AI), IoT (Internet of Things), bulutli texnologiyalar va Big Data xizmatlar sifati oshirishda asosiy vositadir. Bu tamoyil xizmat korxonalariga raqobatbardoshlikni saqlab qolish va xizmat turlarini yangilab borish imkonini

<sup>40</sup> Muallif ishlanmasi





beradi. Masalan, chatbotlar, avtomatik tahlil vositalari va aqlli yechimlar mijozlarga 24/7 xizmat ko'rsatadi.

Barqarorlik va yashil yondashuv tamoyili raqamli xizmatlar ekologik jihatdan ham samarador bo'lishi kerak. Energiya tejankor uskunalari, qog'ozsiz hujjat aylanishi, chiqindilarni kamaytirish – bu tamoyil ijtimoiy javobgarlik va barqarorlik mezonlariga asoslanadi. Bu nafaqat tabiat, balki brend imiji uchun ham foydalidir.

Moslashuvchanlik va tezkor transformatsiya tamoyili bozordagi o'zgaruvchan talablar va texnologik yangiliklarga tezkor moslashuv xizmat korxonalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Bu tamoyil xizmat turlarini segmentlarga ajratish, tajriba asosida iteratsion (aylanma) yondashuvlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish big Data, analitik platformalar, mijozlar xatti-harakati monitoringi orqali to'plangan ma'lumotlar asosida strategik qarorlar qabul qilinadi. Bu tamoyil intuitsiyadan ko'ra, raqamli dalillarga tayanishni targ'ib etadi, bu esa samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Ochiqlik va shaffoflik tamoyili raqamli muhitda xizmat narxlari, foydalanuvchi reytinglari, mijoz fikr-mulohazalari ochiq ko'rinishda taqdim etilishi ishonch muhitini yaratadi. Bu tamoyil korxonaga mijozlar orasida ijobiy obro' orttirishga va sodiqlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirishga oid tamoyillar asosida tuzilgan strategik model taqdim etamiz. Modelning asosiy maqsadi — xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli transformatsiyani tizimli va bosqichli amalga oshirish orqali samaradorlik, mijoz sodiqligi va barqaror o'sishni ta'minlashdan iborat. "D-MII-SEE" strategik modeli (Digitalization – Mijoz – Innovatsiya – Integratsiya – Ekologik-barqarorlik – Effektivlik). Birinchi bosqichda tashxis (diagnostika), tamoyillar asosida ma'lumotlarga asoslangan tahlil olib boriladi. Raqamlashtirish darajasini baholash (Raqamli tayyorgarlik indeksi) natijasida, korxonalar raqamli salohiyati, ehtiyojlari va imkoniyatlari aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda raqamli transformatsiya tamoyillar asosida, raqamlashtirish, innovatsion rivojlanish, moslashuvchanlik amaliyotda CRM, ERP, IoT, AI kabi texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, xizmat jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari tashkil qilinadi. Uchinchi bosqichda, mijozga yo'naltirilgan xizmatlar yaratish tamoyillar asosida, mijozga yo'naltirilganlik, ochiqlik va shaffoflik uchun, individual xizmatlar, omnikanal aloqa, real vaqtli fikr-mulohaza tizimi, personalizatsiya strategiyalari ishlab chiqiladi.

Turtinchi bosqichda ekologik va barqaror yechimlar tamoyillari asosida, yashil yondashuv, ijtimoiy javobgarlik bo'yicha chiqindilarni kamaytirish,

qog'ozsiz ofis, energiya tejovchi texnologiyalar, ekologik brending takomillashtiriladi.

Beshinchi bosqichda, monitoring va takomillashtirish tamoyillar asosida, effektivlik, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv amaliyoti olib boriladi va KPI tizimi (foйда, mijoz sadoqati, xizmat sifati, xarajatlar), BI-platformalarda vizual monitoring (Power BI, Tableau) qilinadi.

Natijada:

- Mijozlar ehtiyojlariga mos xizmatlar soni ortadi
- Raqamli ko'rsatkichlar asosida boshqaruvning aniqligi oshadi
- Innovatsion xizmatlar orqali raqobatbardoshlik kuchayadi
- Ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror muhit shakllanadi

### **Xulosa.**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish va mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni qo'llash biznes rivojlanishining asosiy tamoyillari hisoblanadi.





Shuningdek, biznesni rivojlantirishning raqamli tayyorgarlik, texnologiyalarni joriy etish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish bosqichlari xizmat ko‘rsatish korxonalarining barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya jarayonlari korxonalariga xarajatlarni qisqartirish, xizmat ko‘rsatish tezligi va sifatini oshirish hamda yangi bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada, xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlash, mijozlar ehtiyojlarini yanada to‘liq qondirish va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi jarayonlarida faol ishtirok etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
2. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.
3. Parker G.G., Van Alstyne M.W., Choudary S.P. *Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy*. – New York: W.W. Norton & Company, 2016.
4. Kotler P., Keller K.L. *Marketing Management*. 16th ed. – Harlow: Pearson Education, 2022.
5. Schumpeter J.A. *Capitalism, Socialism and Democracy*. – New York: Harper & Brothers, 1942.
6. OECD. *Digital Economy Outlook 2024*. – Paris: OECD Publishing, 2024.
7. OECD. *Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives*. – Paris: OECD Publishing, 2023.
8. World Bank. *World Development Report 2024: Data for Better Lives*. – Washington, DC: World Bank, 2024.
9. Agrawal A., Gans J., Goldfarb A. *Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence*. – Boston: Harvard Business Review Press, 2018.
10. World Economic Forum. *Future of Jobs Report 2025*. – Geneva: World Economic Forum, 2025.

